

**HAMKORLIGI**

**ISMOILOVA DILOROM BOLTAYEVNA**

**MAMANOVA OYGUL PARDADEVNA**

**MAMASHARIPOVA XANIFA BEKZODOVNA**

**NORMATOOVA DILAFRUZ PERIMQULOVNA**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab va ota-onalarning hamkorligini qanday yo'lga qoyilishi bilan bo'g'liq ma'lumotlar, tavsiyalar va yo'l yo'riqlarni keltirib o'tilgan.

**Kalit so'z:** Qadriyat, estetik tarbiya, onalik va bolalik, oilani mustahkamlash, bola tarbiyasi, davlat va jamiyat, bolaning ijobiy fazilatlari, metod, ota-onalar burchagi, kun tartibi.

**Аннотация:** В данной статье представлены информация, рекомендации и рекомендации по налаживанию сотрудничества между дошкольным образовательным учреждением, школой и родителями.

**Ключевые слова:** Ценность, эстетическое воспитание, материнство и детство, укрепление семьи, воспитание ребенка, государство и общество, положительные качества ребенка, метод, родительский уголок, повестка дня.

**Abstract:** This article provides information, recommendations and guidelines on how to establish cooperation between preschool educational institution, school and parents.

**Key word:** Value, aesthetic education, motherhood and childhood, family strengthening, child education, state and society, positive qualities of the child, method, parent's corner, agenda.

Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning takdiri uchun yuksak ma'suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni orgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamoligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani mакtabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha talim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha

ta lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalashda davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to‘g‘ri hal qilinishi tarbiya ishining qo‘yilishiga kompleks yondashishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatichilikning to‘liq o‘zaro ta’siri va harakatlarning birligiga bog‘liq.

Tarbiyachi ta’limiy faoliyatlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana, bolaning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Tarbiyachi har bir bolaning imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o‘zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi:

1-guruh: Ijobiy xulqli bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni jamoa a’zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo‘lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o‘rnatishda ularga suyanadi.

2- guruh: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3-guruh: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, talimiy faoliyatlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga alohida e’tibor zarur.

Tarbiyachi har bir guruh bolalari bilan individual yondashib, ularni bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi.

MTTning asosiy pedagogik vazifasi - bolalarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni mакtabda o‘qishga har tomonlama tayyorlashda otonalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan mafkuraviy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Masalan: Mafkuraviy tarbiyani bolaga otmishimizda vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, vatan haqidagi she’r va qo shiqlarni yod oldirish orqali singdirish mumkin. Shuningdek farzandlarimizda Vatan himoyasiga har doim tayyorlik tuygusini shakllantirishdan iborat.

Ota-onalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash masalasi qiziqtiradi. Bu tushunarli, chunki o‘quv mehnati zo‘r berishni, harakatni, qat’iylikni, natijaga erisha bilishni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bola mehnatning bu yangi turiga faqat ta limiy faoliyatlar jarayonidagina emas, balki istalgan mehnat topshiriqlarini bajarish vaqtida tayyorlanadi. MTTlarning oila bilan ishslash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. MTtning ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishslash shakllarini mohirlik bilan qo’shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlaridan ota- onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

Ota-onsa va oila bilan yakkama-yakka ishslash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning MTTdagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol- javob kechalari.

Ko‘rsatmali ishlar:

- ishning bu turi ko‘rgazmalar uyushtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.
- bolaning oilasini borib ko‘rish va oila a’zolari bilan yaqindan tanishish.
- ota-onalar pedagogik ta’lim berish va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- > bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;
- > ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat

oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

> ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

> bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to‘g‘ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish va ommalashtirish.

**Ota-onalar majlisi.** Ota-onalar majlisiga maktabgacha ta’lim tashkilotidagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo‘mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma’ruza qiladi, ota-onalar so‘zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta’lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o‘z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda Maktabgacha ta’lim tashkilotiga qiziqish uyg‘onadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo‘lsa, o‘rta guruhda o‘tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo‘lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma’ruzani bolalar ishini,

tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko‘rish bilan qo‘sib olib boorish mumkin. Bolalar hayoti,faoliyati to‘g‘risidagi misollardan foydalanganda ijobjiy materiallar ko‘proq bo‘lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyojkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik,tanqid qilinuvchilarning nomlari ko‘rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota- onalarga etkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni

bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin. Yilning oxirida o‘tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota- onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

**Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish.** Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e’lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqtি-vaqtি bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘sishini ko‘rsatuvchi diagrammalar,bolalar bilan olib boriladigan ta’lim - tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘ynichoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi. Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunlari tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning faoliyatları: mehnat, o‘yin faoliyatları, sayrlar va bolalarning jamoada ularining qanday tutushlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

**Ota-onalar qo‘mitasi.** Ota-onalar qo‘mitasi «Maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo‘mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta’lim tashkilotining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo‘mita a’zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash,

o‘tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko‘maklashishdir. Ota-onalar qo‘mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo‘yicha ular bilan ish olib boradi. Qo‘mita a’zolari har ikki oyda bir marta yig‘ilish o‘tkazadi. Ota-onalar qo‘mitasi mudiraning ish rejalari va ishning ahvoli to‘g‘risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba’zi masalalar haqidagi ma’ro‘za va hisobotni eshitishga xaqlidir. Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotida saqlanadi.

**Aholi o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish.** Pedagogik bilimlarni targ‘ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar. Korxonalarda, xo‘jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida ma’ro‘zalar bilan chiqish, televideniya va radio eshittirishlar, pedagogik targ‘ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ‘ibot vaqtli matbuot: “Maktabgacha ta’lim”, «Maktabgacha ta’lim», «Pedagogik ta’lim» jurnallari, ko‘p sonli badiiy-pedagogik, ilmiy-ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi. Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qish, bolalar tarbiyasi to‘g‘risida kinofilm va spektakillar namoyish qilish. Bu mashg‘ulotlarni har xil sohalar bo‘yicha yuqori malakali o‘qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar. Pedagogik targ‘ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ‘ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog‘lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ‘ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo‘llari, ilmiy asoslangan usullari bo‘yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ‘ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko‘rgazmali va ularning his-tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o‘rtasidagi birlik o‘rnatilishi mumkin.

**Bolalarni maktabga tayyorlashda maktab bilan hamkorlikning ahamiyati.** Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktab o‘rtasida o‘rnatiladigan hamkorlikning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomondan bolalarni maktab ta’limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o‘tkazishni , ikkinchi tomondan, o‘qituvchining katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, o‘quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo etadi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar va maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilot xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi bilishlari,maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta’lim olishga tayyorlashlari kerak. Maktab va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko‘p tomonlama tuzilishga ega.Unda ta’lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni , metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga etibor berish kerak:

1. Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari

lozim.

2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan quollantirish zarur.

3. Bolalarni maktabga ruhiy tayyorligi.

Bu erda vazifa bolalar mehnatning har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat- bilishga qiziqishni o‘stirish, ularni kelajakdagi mustaqil

hayotga tayyorlashdan iborat. Maktab bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida uzviy aloqa asosini bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabda amalga oshiriladigan ta’lim - tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. **M.G. Davletshin, Sh. Do’stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To’ychiyeva.**

Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o‘quv-me- todik qo‘llanma). TDPU, — T.: — 2004.

2. **Z. Nishanova.** Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.

3. **M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova.** Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.

4. **S.X. Jalilova va boshqalar.** Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. — 2009.

5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O ‘YINCHOQLARNING TA’SIRI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.

6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.

7. Abdulkarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.

8. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI*, 1(2), 93-103.

9. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O ‘YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O ‘YINNING AHAMIYATI. *NAZARIY VA AMALIY*

10. Melikboboyevich, S. U., Davrbek o‘g‘li, M. D., & Azamat Jo‘rakul o’g, X. (2024). SHAXSDA SALBIY TUZILMALARNING PAYDO BO ‘LISHI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 218-228.